

**Maishiy iste'molchilar (shuningdek oilaviy korxonalar)ga
tabiiy gaz yetkazib berish bo'yicha
SHARTNOMA**

“ ___ ” _____ 20 __ yil № _____
(shartnoma tuzilgan joy)

“Hududgazta'minot” AJning 20 __ yil “ ___ ” _____ da berilgan
___ – son ishonchnomasi asosida faoliyat yurituvchi gaz ta'minoti tashkiloti (*filial yoki vakolatli vakil*) “ _____ ” direktori, bundan keyingi o'rinlarda
“Yetkazib beruvchi” deb yuritiladi _____
(*F.I.Sh.*)

bir tomondan va _____
manzilida joylashgan “Iste'molchi” (turar joy yoki ob'yekt mulkdori, ijarachisi)

(“Iste'molchi”ning *F.I.Sh.* va manzili)

ikkinchi tomondan quyidagilar haqida mazkur shartnomani tuzdilar:

I. Shartnoma predmeti

1.1. Mazkur shartnoma bilan Yetkazib beruvchi o'zining gaz tarmoqlari orqali Iste'molchiga tabiiy gaz (keyinlarda o'rinlarda gaz deb ataladi) yetkazib berish, Iste'molchi esa iste'mol qilingan gaz uchun o'z vaqtida haq to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Iste'molchi gazni faqat maishiy ehtiyoji uchun sotib oladi va undan foydalanadi (oilaviy korxonaga gazdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ham foydalanishi mumkin), shuningdek, o'z tasarrufidagi gaz tarmoqlaridan foydalanish xavfsizligini, foydalanayotgan gaz yonish qurilmalari va jihozlari, shuningdek gazni hisoblash priborlari (keyingi o'rinlarda hisoblash pribori deb ataladi) soz holatda bo'lishini ta'minlaydi.

1.3. Ushbu shartnoma shartlari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22–sonli qarori bilan tasdiqlangan Tabiiy gazdan foydalanish Qoidalariga talablariga muvofiq bo'lishi lozim. Taraflar shartnoma shartlariga rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

II. Yetkazib berilgan gazni hisoblash

- 2.1. Yetkazib berilayotgan gaz miqdori:
- hisoblash priborlari ko'rsatkichlari bo'yicha;

- ular mavjud bo'lmagan hollarda esa Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 28 martdagi 99-son qarori bilan tasdiqlangan Gazni hisoblash priborlari bo'lmaganda kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun aholiga beriladigan tabiiy gaz sarfining oylik normalar bo'yicha aniqlanadi (*oilaviy korxonalar bundan mustasno*).

2.2. Hisob-kitob oyida yetkazib berilgan gaz hajmi Yetkazib beruvchi vakillari tomonidan hisoblash priborlaridan ko'rsatkichlarni yozib olish asosida, keyinchalik yozib olingan ko'rsatkichlarni billing tizimiga kiritish, shuningdek, iste'molchi tomonidan hisoblash olish priborlari ko'rsatkichlarini interaktiv xizmatlar vositalariga kiritish orqali aniqlanadi.

Tabiiy gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi (keyingi o'rinlarda TGHNAT deb ataladi)ga ulangan, shuningdek, gazni hisoblash priborlariga ega bo'lmagan va belgilangan ma'yorlar bo'yicha hisob-kitob qiladigan iste'molchilar bundan mustasno.

Hisob-kitob oyida hisoblash priboridan ko'rsatkichlarni yozib olinmagan taqdirda, iste'molchi bilan hisob-kitob joriy oyda gazni iste'mol qilish me'yorlaridan kelib chiqib va hisob-kitob oyda haqiqatda iste'mol qilingan hajmga aniqlik kiritgan holda amalga oshiriladi. Bunda ko'rsatkichlarga aniqlik kiritilgandan so'ng haqiqatda iste'mol qilingan gaz uchun qayta hisob-kitob amalga oshiriladi.

TGHNATga ulangan va belgilangan ma'yorlar asosida hisob-qitob qilinadigan iste'molchilarga hisob-qitob oyida yetkazib berilgan gaz hajmi billing tizimi orqali avtomatlashtirilgan rejimda aniqlanadi.

2.3. Hisoblash priborining o'lchov (diapazoni) o'rnatilgan gaz qurilmalari quvvatiga mos kelishi kerak.

2.4. Hisoblash pribori Iste'molchining aybi bilan ishdan chiqqanda (hisoblash priborining qasddan buzilishi, unga zarar yetkazilishi, tashqi ta'sir ko'rsatilishi yoki yo'qolishi), uni almashtirish, ta'mirlash, tekshirish va o'rnatish bo'yicha sarf-xarajatlarning o'rni to'liq iste'molchi hisobidan qoplanadi.

2.5. Hisoblash pribori foydalanish uchun yaroqli ekanligini tasdiqlovchi hujjat, ishlab chiqaruvchi korxonadan belgilangan shakldagi amal qiluvchi belgilar va tamg'alarga ega bo'lishi kerak.

2.6. Hisoblash priborining texnik holati va uni ta'mirlash uchun javobgarlik Yetkazib beruvchining zimmasiga yuklanadi.

2.7. Hisoblash priborlarini qiyoslov davriyligi 8 yil etib belgilanadi. Gaz hisobga olish priborlariga 2019 yil 1 noyabrga qadar rasmiylashtirilgan qiyoslash sertifikatlarining amal qilish muddati o'z kuchida qoladi.

2.8. Hisoblash priboriga tamg'a o'rnatish Yetkazib beruvchining mas'ul xodimlari tomonidan dalolatnoma tuzgan holda hamda Iste'molchi ishtirokida amalga oshiriladi.

2.9. Hisoblash priborlarining, shu jumladan o'rnatilgan tamg'alarning saqlanishi va butunligi uchun javobgarlik Iste'molchi zimmasiga yuklanadi.

2.10. Hisoblash pribori o'rnatilgandan keyin Yetkazib beruvchi tomonidan uch kun muddat ichida "Billing" tizimiga kiritiladi.

2.11. Hisoblash priborini almashtirish, ta'mirlash, xizmat ko'rsatish, tekshirish va sozligini monitoring qilish va qayta qiyoslovdan o'tkazish uchun yechib olish Yetkazib beruvchi tomonidan Iste'molchi ishtirokida amalga oshiriladi.

2.12. Hisoblash pribori Iste'molchining mulki bo'lganda uni almashtirish uchun yechib olish Iste'molchining arizasi asosida Yetkazib beruvchi vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

2.13. Mulkiy egaligidan kat'iy nazar hisoblash priborining qiyoslov muddati tugaganligi sababli yechib olish Yetkazib beruvchi vakillari tomonidan Iste'molchi yoki uning vakili ishtirokida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2.14. Hisoblash priborining sozligini monitoring qilish uchun yechib olish Yetkazib beruvchi vakillari tomonidan Iste'molchi ishtirokida amalga oshiriladi.

2.15. Ushbu shartnomaning 2.11 va 2.12-bandlarida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha yechib olingan hisoblash priborini (Iste'molchining mulki bo'lganda) o'rnatish Iste'molchining arizasiga ko'ra yoxud tegishli qiyoslov muddati tugagandan so'ng o'n to'rt ish kuni ichida Yetkazib beruvchi vakillari tomonidan amalga oshiriladi va mas'ul xodimlari tomonidan tamg'alanadi.

2.16. Ushbu shartnomaning 2.14-bandida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha yechib olingan hisoblash priborini o'rnatish, monitoring tugaganidan so'ng kechiktirmasdan, darhol Yetkazib beruvchining vakillari tomonidan amalga oshiriladi va mas'ul xodimlari tomonidan tamg'alanadi.

2.17. Hisoblash priborining monitoringidan yoki tekshiruv natijalaridan norozi bo'lgan Iste'molchi yuqori turuvchi organ yoki tegishli sudga belgilangan tartibda murojaat qilishi mumkin.

2.18. Iste'molchi tomonidan quyidagi qoidabuzarliklar sodir etilgan taqdirda, Yetkazib beruvchining vakolatli xodimi tomonidan undan so'nggi ko'rik o'tkazilgan vaqtdan yoki oxirgi marta elektron tarzda ko'rsatkichlarni olingan kundan boshlab ulangan va foydalanilayotgan gaz qurilmalari bir kunda 24 soat to'liq quvvat bilan ishlashi hisobidan iste'mol qilingan gaz hajmining narxi amaldagi tariflar asosida undiriladi:

- a) hisoblash priboriga qasddan shikast yetkazish;
- b) uzib qo'yish moslamalari, gazdan foydalanish qurilmalari yoki gazni hisoblash priborida o'rnatilgan tamg'alarni qasddan buzish;
- v) hisoblash priborisiz yoki uni chetlab o'tgan holda gaz iste'mol qilish, (Iste'molchiga belgilangan me'yorlar bo'yicha xizmat ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno);
- g) gaz quvurlari yoki gaz taqsimlash shahobchalarida (keyingi o'rinlarda GTSH deb ataladi), gaz taqsimlash tarmoqlarining texnologik ish rejimining buzilishiga olib keladigan qurilmalarni o'rnatish;

2.19. Iste'molchi Yetkazib beruvchining vakolatli xodimlariga, Energetika vazirligi huzuridagi "O'zneftgazinspeksiya" xodimlariga Yetkazib beruvchining vakili bilan birgalikda, ish kuni soat 08:00 dan 20:00 gacha tegishli guvohnomalarini ko'rsatgan taqdirda hisoblash priborlari va gaz asboblarini moneliksiz ko'zdan kechirish uchun kirish imkoniyatini ta'minlashi shart.

2.20. Yetkazib beruvchi va O'zneftgazinspeksiya xodimlarini Iste'molchi tomonidan hisoblash priborlari va gaz asboblarini ko'zdan kechirishga imkon bermagan yoki kiritilmagan taqdirda, ushbu holat dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Iste'molchi mazkur dalolatnoma bilan tanishib imzo chekishi lozim. Iste'molchi dalolatnomani imzolashni rad etgan taqdirda, dalolatnomada bu haqda belgi qo'yiladi. Rad etish holati kamida ikki nafar holislar va o'zini o'zi boshqarish organi vakili tomonidan tasdiqlanishi kerak. Iste'molchi dalolatnomani imzolashni rad etish sababini bayon qilish huquqiga ega va bu dalolatnomada qayd etiladi.

Dalolatnomaga imzo qo'yishni rad etish Iste'molchini gaz tarmog'idan uzib qo'yish uchun asos bo'ladi va u bu haqida ogohlantiriladi.

III. Hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi

3.1. Foydalanilgan gaz uchun hisob-kitob vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

3.2. Iste'molchi oy tugaganidan so'ng 10 kun mobaynida iste'mol qilingan gaz hajmi uchun tabiiy gaz iste'molini hisoblash priborlari ko'rsatkichlari yoki belgilangan me'yorlar asosida to'lovni amalga oshiradi.

TGHNATga ulangan Iste'molchilar esa oldindan to'lov miqdorini kiritadilar va ular bilan to'liq hajmda hisob-kitob avtomatik tarzda yuritiladi.

3.3. Iste'molchi tomonidan iste'mol qilingan gaz uchun to'lov bank muassasalari va kommunal to'lovlarni qabul qilish kassalari, shuningdek, elektron to'lovlar orqali yoki bevosita naqd bo'lmagan shaklda amalga oshirilishi mumkin.

3.4. Iste'mol qilingan gaz bo'yicha qarzdorlik mavjud bo'lganda Iste'molchiga tegishli bo'lgan doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan voyaga yetgan jismoniy shaxslar qarzdorlikni to'lash bo'yicha solidar javobgar bo'ladilar. Voyaga yetgan jismoniy shaxsning solidar javobgarligi u maishiy iste'molchiga tegishli bo'lgan doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan vaqtdan boshlab vujudga keladi va ro'yxatdan chiqarilgan vaqtgacha amal qiladi.

3.5. Iste'molchi gaz tarmoqlaridan quyidagi holatlarda uzib qo'yiladi:

- foydalanilgan gaz uchun hisob-kitob o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi natijasida qarzdorlik mavjud bo'lganda;

- TGHNATga ulangan Iste'molchilar oldindan amalga oshirilgan to'lovlari miqdori tugayotganligi bo'yicha SMS (m3 yoki so'm) orqali uyali aloqa vositasiga ogoxlantirish yuborilgandan so'ng, oldindan to'lov tugagunga qadar bo'lgan davrda avtomatik tarzda o'chirilishi;

- Yetkazib beruvchining qonunchilikda belgilangan majburiy ko'rsatmalari bajarilmaganda, shu jumladan uning vakillarini hisoblash priborlaridan ko'rsatkichni yechib olishga qo'yilmaganda;

- gazni talon-taroj qilish, gaz tarmoqlariga noqonuniy ulanish yoki gazdan foydalanish qoidalarini buzishning boshqa holatlari yohud gazning rejimini buzadigan, qo'lbola usulda yasalgan nostandart qurilmalar ulanganligi aniqlanganda;

- Yetkazib beruvchi gaz uchun qarzdor bo'lgan iste'molchilarni qarzni besh kun ichida uzish lozimligi haqida xabardor qilishni ta'minlaydi hamda xabardor qilingan vaqtdan boshlab besh kun muddat o'tgandan so'ng, qarzdorlikni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy undirish choralarini ko'radi.

3.6. Shartnomaning 3.5-bandida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha tarmoqdan o'chirilgan iste'molchilarni qayta tarmoqqa ulashda Iste'molchidan to'lov kunida amalda bo'lgan respublikada belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida haq undiriladi (TGHNATga ulangan va iste'molchining arizasiga (talabiga) binoan gaz tarmoqlaridan Yetkazib beruvchi tomonidan muqaddam uzib qo'yilgan Iste'molchilar bundan mustasno).

3.7. Yetkazib beruvchining ma'lumot bazalarida belgilangan tariflar o'zgarishiga (ortishi) qadar Iste'molchi amalga oshirgan to'lovlar haqidagi hisobga olinmagan hujjatlar aniqlangan taqdirda, ushbu Iste'molchi bo'yicha hisob-kitob (qayta hisob-kitob) to'lov vaqti (sanasi) amalda bo'lgan tariflar asosida amalga oshirilib, keyinchalik billing tizimidagi shaxsiy hisob raqami ko'rsatkichlariga tuzatish kiritiladi.

3.8. Foydalanilgan gaz haqining summasi hisoblash priborlaridan ko'rsatkichlarni olish vaqtida amal qilgan tariflar asosida hisoblanadi. Tariflar o'zgarganda, avval hisoblangan haq

summasi bo'yicha tariflar o'zgarishiga qadar to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa, qayta hisob-kitob qilinmaydigan qarzdorlik vujudga kelgan deb tan olinadi.

3.9. Tariflar o'zgargan hollarda gaz hajmi uchun bo'nak tariqasida to'lovni amalga oshirgan Iste'molchi ikki oydan ortiq bo'lmagan muddatga qo'shimcha to'lovlarni amalga oshirishdan ozod qilinadi.

3.10. Iste'molchining mazkur Shartnomaning 2.18-bandida ko'rsatib o'tilgan qoidabuzarlik holatlari, shuningdek, shaxsiy hisob raqamiga (belgilangan me'yorlar bo'yicha iste'mol qilingan gaz miqdorini hisoblash uchun Yetkazib beruvchining billing tizimiga) kiritilgan boshlang'ich ma'lumotlar (isitish maydoni, gazdan foydalanish uskunalari va yashovchilar soni) buzib ko'rsatilishi holatlari aniqlanganda, Iste'molchidan Yetkazib beruvchi vakolatli xodimining oxirgi tashrif buyurgan kundan yoki oxirgi marta elektron tarzda ko'rsatkichlarni olingan kundan boshlab, amalda aniqlangan ma'lumotlar asosida belgilangan iste'mol me'yori bo'yicha hisoblangan gaz hajmining haqi undiriladi.

3.11. TGHNATga ulangan Iste'molchining gaz tarmog'idan uzib qo'yilganda, Iste'molchi tomonidan to'lovlar amalga oshirilganda 5 minutdan oshmagan holda SMS kodi yuboriladi.

IV. Texnik xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Yetkazib beruvchi quyidagi hollarda mazkur Shartnomaning 4.3-bandida ko'rsatilgan muddatlarda Iste'molchining ichki gaz tarmoqlari, gazdan foydalanuvchi uskunalarni texnik taftishdan o'tkazadi va (yoki) ularga profilaktik xizmat ko'rsatadi:

- a) "Yetkazib beruvchi"ning tasdiqlangan jadvaliga asosan;
- b) Iste'molchining yozma yoki boshqa usulda berilgan talabnomaga muvofiq.

4.2. Yetkazib beruvchi Iste'molchi ishtirokida texnik taftish va (yoki) profilaktik xizmatni o'tkazib, bajarilgan ishlar dalolatnomasini rasmiylashtiradi. Yetkazib beruvchi bajarilgan ishlar sifat uchun javobgar hisoblanadi.

4.3. Yetkazib beruvchi tomonidan tasdiqlagan jadvallar va tariflar bo'yicha iste'molchilarning ichki gaz tarmoqlari va gazdan foydalanish uskunalarini quyidagi muddatlarda texnik taftishdan o'tkazish va ularga profilaktik xizmat ko'rsatiladi:

- ko'p qavatli turar joylardagi gaz plitalar, boshqa gaz priborlari mavjud bo'lmaganda – ikki yilda bir marta;
- turar joylardagi gaz plitalari, isitish, suv isitish priborlari – har yili bir marta, profilaktik xizmat ko'rsatish – har bir isitish mavsumi boshlanishidan avval.

4.4. Iste'molchi xaqiqatda ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni tasdiqlangan tariflar asosida amalga oshiradi.

Agarda xizmat ko'rsatuvchi korxonadan tomonidan xizmat ko'rsatilmagan taqdirda Iste'molchi tomonidan to'lovlar amalga oshirilmaydi.

V. Taraflarning huquq va majburiyatlari

5.1. Iste'molchi quyidagi huquqlarga ega:

- gaz standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarda nazarda tutilgan hajmda va sifatda, uzatish rejimiga rioya qilgan holda uzluksiz yetkazib berilishini talab qilishga;
- gazni yetkazib berish shartnomasi bekor qilinganda, solishtiruv dalolatnomasi asosida foydalanilmagan gaz hajmi uchun to'langan summani qaytarishni talab qilishga;
- gazni yetkazib berish shartnomasini qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama bekor qilishga;
- gazni yetkazib berish to'xtatilganda yoki qisqarganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplanishini talab qilishga;

- Yetkazib beruvchi vakilini gaz tarmog'idan uzib qo'yish va qayta ulash uchun qo'shimcha to'lovlarni amalga oshirmagan holda gaz priborini gaz ta'minotidan vaqtincha yoki doimiy uzib qo'yish uchun chaqirtirishga;

- oilaviy korxonaga yetkazib berilgan gazning aniqlangan hajmiga va boshqa parametrlarga norozi bo'lgan taqdirda, Yetkazib beruvchidan gazni hisoblash pribori ishlashining ishonchligini tekshirish uchun komissiya tashkil etishni talab qilish.

Iste'molchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5.2. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

- yangi turar joylarga ko'chib o'tilganda hamda mavjud uy-joy fondini gazlashtirish davomida gaz xo'jaligidan xavfsiz foydalanish qoidalari bo'yicha ko'rsatmalar olish;

- o'z tasarrufidagi gaz tarmoqlari, hisoblash pribori, uskunalar, shuningdek foydalanilayotgan yerto'lalar, texnik yo'laklar va boshqalarni soz holatda saqlash, elektr yoritish va ventilyasiya tizimining doimiy ishlashini ta'minlash;

- binolar yerto'lalaridagi yer osti kommunikasiyalarining zichligini, shuningdek, binolar qurilish elementlarining gaz tarmoqlari bilan o'zaro kesishgan joylarini kuzatib borish;

- o'z xizmat guvohnomalarini ko'rsatgan Yetkazib beruvchi xodimlariga favqulodda va avariya holatlarida kunning istalgan vaqtida, gaz sizib chiqish holatini tekshirish uchun barcha yerto'lalar, texnik yo'laklar, xonalarga kirishini ta'minlash;

- belgilangan tartibda tutun mo'rilari, mo'rilar kallaklari va ventilyasiya kanallari holatini o'z vaqtida tekshirilishini tashkil qilish;

- tutun mo'rilari va ventilyasiya kanallaridagi nosozliklar to'g'risida yong'in xavfsizligi xizmatlariga nosozliklarni tuzatish uchun zudlik bilan xabar berish;

- xususiy mulk huquqida tegishli bo'lgan turar joylarni buzilishi yoki qayta qurilishi haqida Yetkazib beruvchini yozma yoki elektron shaklda xabardor qilish;

- Yetkazib beruvchining qonunchilikda belgilangan majburiy ko'rsatmalarini bajarish;

- turar joy ichidagi gaz quvurini korroziyadan himoya qilish bo'yicha choralar ko'rish, muntazam ravishda bo'yab turish;

- tabiiy gazdan oqilona foydalanish;

- gaz anjomlarini yoqilgan holda qarovsiz qoldirmaslik va yosh bolalarga gazdan foydalanishga ruxsat bermaslik;

- foydalanilgan gaz va gazdan foydalanish uskunasi hamda uy ichi gaz tarmoqlariga xizmat ko'rsatish yuzasidan xaqiqatda bajarilgan ishlar uchun Yetkazib beruvchi bilan o'z vaqtida hisob-kitobni amalga oshirish;

- gaz priborini toza saqlash, taom tayyorlash jarayonida pribor yondirgichlarini ifloslanishdan saqlash;

- gazlashtirish loyihasi saqlanishini ta'minlash hamda uni Yetkazib beruvchi va boshqa vakolatli davlat organlari vakili talabi bilan taqdim qilish;

- yerto'la, yo'lak, hovli, ko'chada tabiiy gaz hidi sezilgan taqdirda, avariya xizmatiga "104" telefoni orqali xabar berish;

- gaz bilan to'lgan joylardan odamlarni olib chiqish, elektr yoritish tizimi yonib va o'chib qolishi, ochiq olov yoki uchqun paydo bo'lishini oldini olish choralari ko'rish;

- Yetkazib beruvchi vakillarini tegishli guvohnomalarini ko'rsatgan taqdirda ish kuni soat 08:00 dan 20:00 gacha tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari va gaz asboblarini ko'zdan kechirish uchun qarshiliksiz kirish imkoniyatini ta'minlash;

- gaz iste'molini hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida uning ishlashiga to'sqinlik qiladigan xatti-harakatlarni amalga oshirmaslik, ularga qasddan shikast yetkazishni oldini olish va o'rnatilgan tamg'alarning butunligini ta'minlash.

5.3. Yetkazib beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- texnik zaruratga ko‘ra, ushbu shartnomaga muvofiq belgilangan tartibda Iste‘molchini kamida 3 kun oldin xabardor qilgan holda gazni yetkazib berishni to‘xtatish;
- gaz ta‘minoti tarmoqlariga o‘zboshimchalik bilan ulanish holatlari aniqlanganda, belgilangan tartibda gaz tarmog‘idan uzib qo‘yish;
- Iste‘molchilardan tabiiy gazdan foydalanish qoidalari va gazni yetkazib berish shartnomasi talablariga rioya etishni talab qilish;
- gazni yetkazib berish shartnomasini qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama bekor qilish;
- gaz tarmoqlarida avariyaning oldini olish yoki bartaraf etish yuzasidan kechiktirib bo‘lmaydigan choralarni ko‘rish zarurati tug‘ilganida, Iste‘molchi bilan kelishmasdan va ogohlantirmasdan, zudlik bilan xabardor qilgan holda, gazni yetkazib berishni to‘xtatish yoki cheklash.

5.4. Yetkazib beruvchi quyidagilarga majbur:

- o‘ziga qarashli bo‘lgan gaz tarmoqlarini soz holatda saqlash va ularda o‘z hisobidan ta‘mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish;
- o‘ziga qarashli bo‘lgan gaz tarmoqlarining texnik holati va ulardagi ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash uchun davriy ravishda ko‘zdan kechirish;
- gaz yetkazib berish to‘xtagan taqdirda bu to‘g‘risida Iste‘molchini xabardor qilish;
- gazning ruxsatsiz iste‘mol qilinganligi, gaz tarmoqlari moddiy boyliklarining talon-taroj qilinganligi to‘g‘risida huquqni muhofaza qilish organlarini xabardor qilish;
- Iste‘molchiga gaz yetkazib berish shartnomasida kelishilgan shartlarda gaz yetkazib berish;

- Iste‘molchiga yo‘riqnomalar berish va xonada o‘rnatilgan gaz priborlaridan xavfsiz foydalanish masalalari bo‘yicha eslatmani topshirish;

- vakolatli davlat organlarining majburiy ko‘rsatmalarini bajarish;
- Iste‘molchining ichki gaz tarmoqlari, gazdan foydalanuvchi uskunalarini texnik taftishdan o‘tkazish va profilaktika xizmatlari ko‘rsatish;
- Iste‘molchini texnik hizmat ko‘rsatish (taftish o‘tkazish) sanalari haqida turar joylar yo‘laklarida e‘lonlar yoki boshqa mavjud usullar orqali kamida uch sutka avval ogohlantirish;
- Iste‘molchining yozma yoki elektron buyurtmalari asosida, narxlarni tartibga solish organi tomonidan tasdiqlangan tariflar bo‘yicha, quyidagi muddatlarda gazdan foydalanish uskunalarini ta‘mirlash:

tabiiy gaz sizib chiqishida – darhol;

taom tayyorlash (gaz plitasi) uchun mo‘ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida – bir kun davomida;

isitish mavsumida isitish uchun mo‘ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida – bir kun davomida;

issiq suv va isitish uchun mo‘ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida (isitish mavsumidan tashqari vaqtda) – ikki kun davomida;

gazdan foydalanish uskunalarini almashtirishda – besh kun davomida;

- Iste‘molchiga gaz iste‘molini hisobga olish priborlari ko‘rsatkichlarini har oyda kiritib borish, to‘lovlarni amalga oshirish va interaktiv xizmatlarning boshqa imkoniyatlaridan foydalanish uchun haq undirmasdan shaxsiy kabinet ochish imkonini berish;

- Iste‘molchi arizasiga asosan hisob-kitob ahvoli hamda iste‘mol qilingan gaz uchun qarzdorlik mavjud emasligi (mavjudligi) haqida ma‘lumotnomani ikki ish kuni ichida haq undirmagan holda taqdim etish.

Yetkazib beruvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

VI. Taraflarning javobgarligi

6.1. Zarur miqdorda gaz yetkazib berilmagan holatda, Yetkazib beruvchi har bir kechiktirilgan kun uchun shartnomaviy majburiyatlar bajarilmagan qismining 0,4 foizi, biroq yetkazib berilmagan gaz umumiy qiymatining 50% foizi dan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima (penya) to'laydi.

6.2. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holati vujudga kelganda, Yetkazib beruvchi mazkur shartnoma shartlarini buzilishi uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

6.3. Iste'molchi quyidagilar uchun javobgar hisoblanadi:

- gazdan mazkur shartnomada nazarda tutilgan shartlarga zid ravishda foydalanish;
- o'zboshimchalik bilan gaz ta'minoti tarmoqlariga ulanish yoki gazdan foydalanish qoidalarini boshqacha tarzda buzish, hisoblash priboriga va undagi barcha plombalariga qasddan shikast yetkazish yoki ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida tashqaridan aralashish.

6.4. Mazkur shartnomaning 2.18-bandida ko'rsatilgan holatlarda gaz hajmlari narxining undirilishi Iste'molchini qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikdan ozod qilmaydi.

6.5. Olingan gaz uchun to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, Yetkazib beruvchiga har bir kechiktirilgan kun uchun 0,1 foiz, biroq kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima (penya) to'lanadi.

VII. Korrupsiyaga qarshi talablar

7.1. Shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlardagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishonтиради va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

7.2. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Yetkazib beruvchining manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Yetkazib beruvchining hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

VIII. Yakunlovchi shartlar

8.1. Mazkur Shartnoma Iste'molchi gaz tarmoqlaridan amalda uzib qo'yilguniga qadar, taraflarning o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarilishi qismi bo'yicha esa ularning to'liq bajarilguniga qadar amal qiladi.

8.2. Shartnomani amal qilish muddati davomida qonun hujjatlarida o'zgarishlar ro'y bergan taqdirda, mazkur shartnoma qonun hujjatlariga muvofiqlashtirilishi lozim.

8.3. Taraflar mazkur shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha kelishmovchiliklar va nizoli masalalarni muzokara yo'li bilan hal qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Kelishmovchiliklarni muzokara yo'li bilan hal qilish imkoni bo'lmaganda, ular sud tartibida hal etiladi.

8.4. Ushbu shartnoma taraflarning har biri uchun ikki nusxada tuzilgan, har ikkala nusxa bir hil yuridik kuchga ega.

8.5. Yetkazib beruvchi va Iste'molchi gaz yetkazib berishda, uni iste'mol qilishda, shuningdek, o'zaro hisob-kitob qilishda mazkur shartnoma va qonun hujjatlari normalariga amal qilishga majburdir.

8.6. Shartnoma _____ muddatga tuziladi. Shartnoma muddati tugagach, taraflardan biri uni uzaytirish yoki bekor qilish haqida ariza bermagan taqdirda, shartnoma keyingi yilga uzaytirilgan hisoblanadi. Shartnomani bekor qilish haqidagi talabnoma, bildirish xati va boshqalar shartnomaning amal qilish muddati tugashidan bir oy oldin berilishi kerak.

IX. Taraflarning yuridik manzili, rekvizitlari va imzolari

«Yetkazib beruvchi»	«Iste'molchi»
(gaz ta'minoti tashkilotining nomi)	(«Iste'molchi» – jismoniy shaxs F.I.O.)
Pochta manzili: _____	Yashash joy manzili: _____
KTUT kodi _____	shaxsiy hisob raqami _____
XXTUT _____	STIR _____
Bog'lanish telefoni: _____	INPS _____
To'lovlar uchun bank hisob-raqami: _____	Bog'lanish uchun telefonlar: _____
Bank nomi: _____	uyali: _____
FPM _____	uy: _____
STIR _____	Pasport ma'lumotlari: _____
Rahbar: _____	_____
(F.I.O, imzo)	(«Iste'molchi» imzosi)
<i>Muhr o'rni</i>	

20 __ yil “__” _____ dagi
_____ - son shartnomaga
1-ilova

O'rnatilgan gaz qurilmalarini xavfsiz ishlatish bo'yicha KO'RSATMA VA ESLATMA

Tabiiy gaz (metan) – rangsiz, zaharli gaz hisoblanadi va shu sababli binolardagi gaz quvuridan sirqib chiqqan hollarda sezilmaydigan gazli havo aralashmasi paydo bo'lishi mumkin.

Kundalik hayotda gazdan xavfsiz foydalanish uchun uning tabiiy xususiyatlarini va quyidagi qoidalarga rioya etish zarur:

1. Xonada gaz hidi paydo bo'lganda, darhol gaz qurilmalarining og'zini berkitib, deraza va eshiklarni ochish, yelvizak hosil qilish va telefon orqali

104 avariya xizmatini chaqirish zarur. Olov yoqmaslik, chekmaslik, elektr yoritish asboblari va elektr qurilmalarini yoqmaslik, elektr qo'ng'iroqlardan foydalanmaslik, gazlangan hududdan odamlarni zudlik bilan olib chiqish kerak.

2. Gaz plitasidan foydalanganda oyna ochiq holda bo'lishi lozim. Toza havo yetarlicha kelmaganda gaz oxirigacha yonmasligi mumkin va is gazi paydo bo'ladi. Is gazi – metanning oxirigacha yonmagan mahsuloti. Rangsiz va hidsiz, o'ta zaharli. Bino hajmining 10 foiziga yetarli is gazi yig'ilganda va inson bir necha marta undan nafas olsa, uni o'limga olib kelishi mumkin. Is gazi chiqishining belgilari: olovda sariq, qizil rang chiqishi.

3. Gaz qurilmasi nosozligida yoki gaz qurilmalari profilaktikasi uchun gaz hizmati ekspluatatsiya xodimlarini 104 raqami orqali chaqirish.
4. Mo'rilar va ventilyasiyaning normal holatda ishlashi, gaz isitish qozonlarini ishlatish payti va ishlatishdan oldin tyagani tekshirish.
5. Isitish mavsumi boshlanishida mo'rilar holatini tekshirish.

Quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

1. Gazda ishlaydigan qurilmalarini o'zboshimchalik bilan gazga ulash, joyini o'zgartirish, almashtirish va ta'mirlash;
2. Gazda ishlaydigan qurilmalar o'rnatilgan binolarni me'riy shartlarga to'g'ri kelmagan holda qayta rejalashtirish;
3. Gazda ishlaydigan qurilma, tutun va ventilyasion tizimlar konstruksiyasiga o'zboshimchalik bilan o'zgartirish kiritish, shuningdek, ventilyasiya kanallarini to'sib qo'yish, mo'rilarni tozalash uchun mo'ljallangan «karman» va lyuklarni berkitib tashlash;
4. Xavfsizlik va boshqarish avtomatikasini o'zboshimchalik bilan o'chirish, gaz qurilmalari, avtomatika va armatura nosoz bo'lganda ulardan foydalanish;
5. Devor qalinligi o'zgarganida, gazlashtirilgan pech va mo'rilar darz ketishida tabiiy gazdan foydalanish;
6. Mo'ri va ventilyasiya kanallarini tekshirish va tozalash to'g'risidagi dalolatnomaning yo'qligi yoki uning vaqti tugaganida tabiiy gazdan foydalanish;
7. Mo'ri va ventilyasiya kanallarini o'zboshimchalik bilan tozalash;
8. Yopiq oynalar, jalyuzili panjaralar, ventilyasiya kanallari panjaralari yopiq bo'lganda, vanna va oshxona eshiklari ostida teshiklar hamda mo'ri va ventilyasiya kanallarida tyaga yo'qligida gaz qurilmalaridan foydalanish;
9. Ishlab turgan gaz qurilmalarini qarovsiz qoldirish, to'xtovsiz ishlovchi va bunga munosib avtomatikaga ega bo'lgan qurilmalar bundan mustasno;
10. Maktab yoshidagi bolalarni hamda o'zini boshqara olmaydigan va gazdan foydalanish qoidalarini bilmaydiganlarni gazda ishlaydigan qurilmalardan foydalanishini taqiqlash;
11. Gaz quvurlariga arqon bog'lash va ularga yuk qo'yish;
12. Gaz va gazda ishlaydigan qurilmalardan belgilangan maqsadda foydalanmaslik, xonalarni isitishda ulardan foydalanish;
13. Gazda ishlaydigan qurilmalar joylashgan xonalardan dam olish va uxlash maqsadida foydalanish;
14. Tabiiy gaz bor-yo'qligini bilish uchun olov yoqib tekshirib ko'rish (odatda bu maqsadlarda sovunli emulsiya yoki maxsus qurilmalardan foydalanish lozim);
15. Gaz tarmoqlarida gaz taqsimlash tarmoqlarining texnologik rejimini buzuvchi nasos qurilmalarini o'rnatish.

DIQQAT!

Gazdan foydalanish qoidalariga rioya qilmaslik
inson hayoti uchun XAVFLI bo'lishi mumkin!

Nafaqat yaqinlaringiz hayoti va mulki oldida, balki qo'shni
va boshqa fuqarolar oldidagi o'z shaxsiy javobgarligingizni

UNUTMANG!

Sizning xavfsizligingiz o'z qo'lingizda!

20 __ yil “__” _____ dagi
 _____ - son namunaviy shartnomaga
 2-ilova

**“Iste’molchi”ning yashovchilar soni hamda gaz uskunalarining
 texnik parametrlari haqida
 MA’LUMOTLAR**

T/r	Nomlanishi	Shu jumladan yillarda				
		2021 y	2022 y	2023 y	2024 y	2025 y
1	Yashovchilar soni					
2	Isitiladigan hajm (metr kub)					
3	Hisoblash qurilmasining zavod raqami, turi va markasi					
4	Hisob qurilmasining amal qilish muddati					
5	O‘rnatilgan qurilmalar:					
	2 komforkali gaz plitasi					
	3 komforkali gaz plitasi					
	4 komforkali gaz plitasi					
6	___ komforkali gaz plitasi					
6	Gaz o‘chog‘i					
7	Isitish pechi (OP), isitish-qaynatish pechi (OVP)					
8	Oqimli suv qizdirgich (Gaz kolonkasi)					
9	Suv qizdirgich (Yog‘ochni yoqish kolonkasi)					
	AGV-80					
	AGV-120					
	AOGV-11/6					
	AOGV-15					
	AOGV-23					
	VNIISTO					
Ariston						
10	Boshqa qurilmalar _____					
	Boshqa qurilmalar _____					
	Boshqa qurilmalar _____					
11	Uy hayvonlari soni:					
	Ot					
	sigir					
	cho‘chqa					
	qo‘y (echki)					
	Boshqalar _____					
	Boshqalar _____					
Boshqalar _____						
12	Me‘yor bo‘yicha oylik to‘lov:					
	yo‘zgi (so‘m)					
	qishki (so‘m)					
	Tarif bo‘yicha yillik to‘lov (so‘m)					

Yetkazib beruvchi:

Iste‘molchi:

